

MATN USTIDA ISQLASH ORQALI NUTQIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR USTIDA ISQLASH

Umarova Nigora Zainitdinovna,

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti kafedra mudiri

Annotasiya: maqolada oliy ta'lismida o'zbek tili o'qitishda mashq turlaridan samarali foydalanish, texnika yo'nalishi talablariga o'zbek tili bo'yicha belgilangan ko'nikma va malakalar hamda ularni shakllantirishga o'quv topshiriqlargadoir taklif-mulohazlar bayon qilingan. Shuningdek, mashqlar tavsiflangan, tasnif etilgan hamda yangi darslik va qo'llanmalarida grammatik va nutqiy mashqlar qanday bo'lishi haqida taklif hamda namunalar berilgan.

Kalit so'zlar: mashq, mashq turlari, grammatick mashqlar, oliy ta'lism, nutqiy ko'nikmalar, o'zbek tili, malaka, kompetentsiya, DTS, o'quv topshiriqlari, fonetik mashqlar, metodika, takomillashtirish, darslik, qo'llanma, zamonaviy o'quv topshiriqlari, leksik mashqlar, o'qib tushunish mashqlari

РАБОТА НАД УЧЕБНЫМИ ЗАДАНИЯМИ, РАЗВИВАЮЩИМИ РЕЧЕВЫЕ НАВЫКИ ПОСРЕДСТВОМ РАБОТЫ НАД ТЕКСТОМ

Умарова Нигора Зайнитдиновна,
заведующая кафедрой Ташкентского государственного технического
университета имени Ислама Каримова

Аннотация: в статье описывается эффективное использование видов упражнений при преподавании узбекского языка в системе высшего образования, навыки и квалификации, установленные по узбекскому языку в требованиях технического направления, а также учебные задания для их формирования, и предложения-соображения. Упражнения также описаны, классифицированы, а новые учебники и руководства содержат рекомендации и образцы того, на что похожи грамматические и разговорные упражнения.

Ключевые слова: упражнение, типы упражнений, грамматические упражнения, высшее образование, речевые навыки, узбекский язык, квалификация, компетентность, DTS, учебные задания, фонетические упражнения, методика, совершенствование, учебник, пособие, современные учебные задания, лексические упражнения, упражнения на понимание прочитанного

WORKING ON EDUCATIONAL TASKS THAT DEVELOP SPEECH SKILLS THROUGH WORKING ON TEXT

Umarova Nigora Zainitdinovna,

Head of the Department of Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

Abstract: the article describes the effective use of types of exercises when teaching the Uzbek language in the higher education system, the skills and qualifications established in the Uzbek language in the requirements of the technical direction, as well as training tasks for their formation, and suggestions-considerations. Exercises are also described, classified, and new textbooks and manuals contain recommendations and samples of what grammar and conversational exercises are like.

Keywords: exercise, types of exercises, grammar exercises, higher education, speech skills, Uzbek language, qualification, competence, DTS, training tasks, phonetic exercises, methodology, improvement, textbook, manual, modern training tasks, lexical

exercises, exercises for reading comprehension

Kirish. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi tilga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirdi. Ta’lim mazmuni yangilandi, mazkur soxada qilinishi kerak bo‘lgan isqlar ko‘lami belgilab olindi. Ta’lim tarixida nimani o‘qitish va қanday o‘qitish masalalari asosiy muammolardan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib қolmoqda”[2].

O‘zbek tili darslik va qo‘llanmalarida beriladigan o‘quv materiallari ham yangi shakl va mazmun kasb etdi. Shu bilan birga davlat tilini o‘qitishda jiddiy kamchiliklar, muloxazatalab o‘rinlar ham yo‘qemas. Oradan shuncha vakto‘tgan bo‘lishiga qaramasdan ta’lim boshka tillarda olib boriladigan guruh yoki mashg‘ulotlarda o‘zbek tili ta’limiga doir o‘quv topshiriqlari mazmuni sezilarli darajada o‘zgarmasdan kelmoqda.

O‘qitish metodikasi o‘quv topshiriqlarida o‘z aksini topadi. Shu o‘rinda o‘quv topshiriqlari tushunchasiga ham izoh berib o‘tish joiz. Metodikada o‘quv topshiriqlarini reproduktiv va kognitiv-pragmatik turlarga bo‘lish mumkin. An‘anaviy ta’limda til o‘qitishda, asosan, reproduktiv xususiyatga ega o‘quv topshiriqlaridan foydalanilgan. Reproduktiv o‘quv topshiriqlar darslikda mavzuga doir bilim va ko‘nikmalarini namoyish etishga qaratilgan tayyor, oson, қayta isqlab chiqariladigan shakldagi (yoki savolga javob) natijasi bo‘lgan topshiriqlardir[3].

O‘zbek tilini ta’lim boshka tillarda olib boriladigan guruqlarda o‘qitilishiga doir X.Muhitdinova, A.Rafiyev, I.Mirzayev, M.Boltayev kabilar rus guruqlari uchun; M.Bo‘ronov, Sh.Yuldasheva va D. Kabulova, A. Yusupov [1;56]lar esa қoraқalpoq tilli guruqlar uchun bir қator ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borgan. O‘quv topshiriqlari talabalarda nutqiy kompetensiyani to‘la shakllantira olmayapti. Ta’kidlash lozimki, mazkur tadqiqotda, asosan, rus guruqlarida o‘zbek tili o‘qitish ko‘zda tutilgan. Shu bois olim o‘zbek tili ta’limida muayyan mazmuni ifodalovchi grammatick bilimlarni mazmuniy uzviylik va bosqichma-bosqich uzlusizlikda berilishi, nutqiy mavzularni esa shunga mos holda berib borilishi rusiyzabon talabalarda o‘zbekcha to‘g‘ri nutqning shakllanishiga va avtomatlashgan nutqiy ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lishiga olib keladi, deb hisoblaydi[4]. Buni amalga oshirish uchun o‘zbek tili dasturlari va darsliklarida nutqiy mavzular va grammatick ma’lumotlar quyidagi tartibda berilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi: 1) muayyan fikrni ifodalashga oid mavzu; 2) grammatick mavzu; 3) nutqiy mavzu; 4) adabiy o‘qish uchun material.

Badiiy matnlar inson tafakkurini sayqallashtiradigan, teran fikrlashga undaydigan, obrazli fikrlash ko‘nikmasini tarkib toptiradigan muhim estetik qiymatga ega san’at asaridir. Ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug‘illanuvchilar ham adabiyotdan, badiiy matnlardan estetik zavq bilan birga, fikr, o‘ziga kerakli tushuncharni oladi. Shu ma’noda matnlarni teran anglash uchun undagi yashirin ma’nolarni fahmlay olishga o‘rgatish lozim. Bularning barchasi o‘qish savodxonligini rivojlantiruvchi topshiriqlarga bevosita bog‘liq. Inson fikrlashni o‘rgansa, nisbatan kam ma’lumotga ega bo‘lgan taqdirda ham zarur qarorlarni to‘g‘ri qabul qila oladi, muhim xulosalarga kela oladi. Texnika yo‘nalishi talabalarida ham nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun matn ustida quyidagicha isqlash mumkin:

1-dars

I. O‘qib tushunish: matnni ifodali o‘qishni mashq qiling. Matn ostida berilgan savol va topshiriqlar ustida isqlang.

Matn

Kelajak bugundan bosqlanadi

Boks bo‘yicha jahon championi, “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti hamda “O‘zbekiston iftixori” faxriy unvoni sohibi Bahodir Jalolov ayni kunlarda Yaponianing Tokio shahrida

murabbiylari — aka-uka To'lqin va Farrux Qilichevlar bilan olimpiada musobaqalariga tayyorgarlik mashg'ulotlarini olib bormoqda. Biz Bahodir Jalolov va uning onasi Sabohat Jalolova bilan Olimpiada safari oldidan uchrashib, suhbatlashgan edik. Dildan kechgan samimi suhbat jarayonida shu narsaga amin bo'ldikki, aslida hech bir yutuq shunchaki qo'lga kiritilmaydi, uning ortida mashaqqatli mehnat, maqsadga erishish yo'lidagi tinimsiz intilisqlar, ustozlar saboqlari hamda ota-onaning ezgu niyatlari yo'g'rilgan duolar kuch bo'lib turadi!

Ot izini toy bosar

Bahodir Jalolovning otasi rahmatli Isomiddin polvonni nafaqat Surxondaryoda, balki O'zbekistonning boshqa hududlarida ham yaxshi tanishgan. Sambo bo'yicha sport ustasi Isomiddin Jalolovning Sariosiyodagi chog'roqqina hovlisiga kuragi yer ko'rmagan mashhur polvonlar tez-tez kelib turgan. Ikki qizini, yer- u ko'kka ishonmaydigan polvon yolg'iz o'g'li Bahodirni o'zgacha mehr bilan suyar, xotini Sabohatga qarab, "Onasi, kun kelib o'g'lim champion bo'ladi, uni o'zim musobaqalarga tayyorlayman, murabbiyi ham o'zim bo'laman", derdi.

Ayol erining so'zlarini ma'qullab, "O'zingiz polvon bo'lganidan so'ng, o'g'lingiz izingizdan boradi-da, "Ot izini toy bosar" degan maqol bejiz aytilmagan, men ham qizlarimizning o'zimga o'xshagan o'qituvchi bo'lishiga hozirdanoq tayyorgarlik ko'raversammikan", deb hazillashar, shu tariqa, er-xotinning sof orzulari osmon qadar yuksalib boraverdi.

Bahodirning so'zlarini jon qulog'im bilan eshitar ekanman, ba'zi bir sportchilarning mashhur bo'lganlaridan keyingi dimog'dor chehralari ko'z o'ngimdan soyaday o'tdi. Shunda "Oddiylik bor ekan, odamiylik aslo o'lmas", degan hikmatli gapning mag'zini chaqqanday bo'ldim. Odamiylikda, mardlikda iroda va mashaqqatli mehnatda g'olib bo'lib yetishgan insonning hali ko'p bora champion bo'lishiga ishonamiz.

I. O'qib tushunish:

- Matndagi muhim jumlanı aytıng.
- Bahodirning yutuqları nimaga bog'liq ekanligini gapirib bering.
- 30-35-qatorlarni o'qib, o'zingizni qanday fazilatlar quvontiradi-yu, qanday illatlar yoqmasligini aytıng.

Grammatika:

Tarjimayı hol matnini tuzishda gapning kesimi I shaxs birlik, asosan, o'tgan zamon shaklida bo'ladi:

O'qishga qabul qilindim, tug'ilganman, dunyoga keldim.

I o'qidim; o'qidik,

II o'qiding; o'qidingiz,

III o'qidi; o'qidilar.

Insho (yozish):

*15-20-qatorlarda o'tgan zamon qo'shimchasini olgan fe'llarni alohida yozib oling.

*25-30- qatorlarni o'qib, iqtidor va mehnat haqida o'z fikringizni bitta jumlada ifodalang.

*Matnning mazmunidan kelib chiqib, muvaffaqiyatga erishishning siri nimada ekanligini yozma ifodalang.

*O'rganganlaringizdan foydalanib, o'zingiz haqingizda kichik tarjimai hol matnini yozing

Quyida o'quv topshiriqlaridan foydalanish bo'yicha bir namuna isqlab chiqilgan bo'lib, tanlangan matn ustida isqlash orqali topshiriqlarning vazifaviy turlari keltiriladi. Ta'kidlangani kabi, topshiriqlardan dastlab bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda, keyin o'zlashtirilgan bilim va egallangan ko'nikma hamda malakalarni sinash vositasi sifatida foydalaniladi. Biroq, pedagogika fanlari doktori, professor Uman

Arkadiy Ilyich ta’lim topshiriqlari orasida ogoqlantiruvchi ta’sirga ega bo‘limganlari ham borligini ta’kidlaydi. Ular ta’lim qobiliyatları va ko‘nikmalarini takomillashtirish uchun o‘xhasqlik bilan amalga oshiriladigan reproduktiv vazifalardir.

O‘quv faoliyatining tabiatı bo‘yicha ikkinchi guruh vazifalari quyidagilardan iborat: o‘quv ma’lumotlariga vositachilik qiluvchi o‘quv topshiriqlari; o‘quv materiallari bilan o‘quvchining ishini boshqaradigan o‘quv topshiriqlari:
 a) kuzatuv uchun vazifalar;
 b) matn bilan isqlash vazifalari;
 c) qobiliyat va ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan vazifalar.

O‘quv ma’lumotlariga vositachilik qiladigan o‘quv topshiriqlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quv materiallarini o‘z ichiga oladi yoki uni qayerdan olish mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu turdag'i vazifalar o‘qituvchining tushuntirishini qisman o‘zgartiradi va o‘quv materialining dastlabki idrokiga yoki uni mustaqil o‘rganishga mo‘ljallangan.

O‘quv materiallari bilan talabalarning ishini boshqaradigan o‘quv vazifalari o‘quvchini tushunish, o‘quv ma’lumotlarini tizimlashtirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish; taqqoslashni, xulosalarni, umumlashtirishni taklif qiladi; yangi materialni ongli ravishda o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

E.I. Passov o‘z tadqiqotlarida “Ikkinchi til ta’limida eng muhim va murakkab muammolardan biri til va nutq materiallarini tanlash va ularni to‘g‘ri taqsimlash bo‘lib, bunda, avvalo, talabalarning yoshi, ta’lim yo‘nalishini e’tiborga olgan holda grammatik minimumni tanlash va taqsimlash, ya’ni kimga nimani, қachon berilishi muammosini hal qilish kerak bo‘ladi”, degan edi[5].

L. S. Vigotskiy ona tilini o‘rganish pastdan yuқoriga, xorijiy tilni egallah esa yuқoridan pastga yo‘nalishida amalga oshirilishini ta’kidlagan edi [6].

X.Muhiddinova bu boradagi turli fikrlarni o‘zaro takqoslab o‘rganar ekan bugungi kungacha o‘zbek tili ta’limida qo‘llanadigan mashqlar va topshiriqlarni osondan qiyingga tamoyilida bosqichma-bosqich rivojlantirib borishi, bunda rusiyabon talabalarning yoshi, til xususiyati, bilim darajasi, ta’lim yo‘nalishini e’tiborga olish, kaysi bosqichda, kimga, қanday mashq va topshiriqlarni berishning ilmiy-nazariy va metodik asoslarini isqlab chiqish ilmiy metodik jihatdan tadqiq qilinmaganini ta’kidlaydi[13]. O‘zbek tilini rus guruqlarida o‘qitishda aynan қanday mashq turlaridan foydalanish, mashqlardan topshiriqlarni қanday farqlash va oliy ta’lim muassasalarida nutqiy ko‘nikmalarini қanday rivojlantirib borish masalalarini ilmiy tadqiqiy jihatdan o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O‘quv topshiriqlari bilan bog‘liq muammolarni hal qilish o‘zbek tili darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarida ham mashqlar va topshiriqlarning berilishi bilan bog‘liq chalkasqliklarni bartaraf etishga va o‘zbek tili ta’limida nutqiy kompetensiyaning rivojlanishiga sharoit yaratadi. O‘zbek tili o‘qitish metodikasida innovatsion yondashuvlar qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, til o‘qitishning o‘ziga xos usullari mavjud bo‘ladi.

Shu o‘rinda G‘.Hamroevning dars jarayonida mashq va topshiriqni bir-biridan didaktik jihatdan farqlash xaqidagi nazariyasiga to‘xtalish joiz. O‘quv topshiriqlarining o‘zbek tili o‘qitish amaliyotida, asosan, ikki ko‘rinishi qo‘llaniladi. Bular mashq va topshiriqlar. Darxaqiqat, o‘zbek tili darslik va qo‘llanmalarida ham takrorga asoslangan mashqlar deyarli uchramaydi. Topshiriqlar mazmuni ham xorijiy tillar o‘qitish amaliyotidagi kabi ko‘nikma va malakani shakllantirishga to‘la ixtisoslashmagan. Mashq va topshiriqlar, umuman, o‘quv topshiriqlari bilim hosil qilishdan ko‘ra, nutqiy kompetensiyani shakllantirishga mo‘ljallanishi lozim.

A. Yusupovning ta’kidlashicha, o‘zbek tili o‘qitishda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun bosqlang‘ich mashg‘ulotlarda talaffuz mashqlaridan foydalanish

maqsadga muvofiqdir. Bunda talaba, albatta, mashq jarayonida o‘zbek tilida o‘rganayotgan ma’lumotlarini o‘z ona tilidagi ma’lumotlarga taqqlaslaydi, qiyosiy talaffuzga tayangan holda o‘rganadi. Keyin boshqa bo‘limlar ham shu yondashuv asosida samarali o‘zlashtiriladi.

Ma’lumki, predmet ҳақида аниқ tasavvurga ega bo‘lish uchun uni ikkinchisi bilan qiyoslash talabada birdaniga yorqin tasavvur hosil qilishda yordam beradi. Masalan, til o‘rganuvchiga “Urg‘u” mavzusini tushuntirish uchun istagancha ta’rif keltirgan bilan kutilgan natijaga erishish qiyin. Lekin o‘zbek tili urg‘usini rus, қорақалпоқ, nemis yoki ingliz tillaridan biridagi so‘z urg‘usi bilan solishtirsangiz, darhol tushuncha hosil bo‘ladi[1].

Nutqiy kompetensiyani shakllantiruvchi o‘quv topshiriqlari, xususan, talaffuz mashqlari masalasi boshqa tillarda etaricha o‘rganilgan. Jaxon tajribasida mashqlardan uzlusiz foydalaniladi. Mamlakatimizda oliy ta’lim uchun nashr ettirilgan darslik va qo‘llanmalarda tovusqlarning talaffuz holati aks etgan maxsus chizma(rasm)lardan samarali foydalanilmaydi. Ma’lumki, o‘zbek tiliga xos bo‘lgan ayrim tovusqlarning adabiy talaffuzini oddiy, an’anaviy mashqlar bilan to‘la darajada o‘rgatib bo‘lmashagini bugungi talaba, xususan, o‘qituvchilarning nutqi ham ko‘rsatib turibdi. Topshiriqlar mazmunini mamlakatimizning hamma bilishi shart bo‘lgan madaniy meros va қадriyatlarga oid noyob matnlar bilan boyitish o‘zbek tili darslarining mazmunli bo‘lishiga katta hissa qo‘shadi.

Oliy ta’lim muassasalarining o‘zga tilli guruqlarida o‘zbek tili o‘qitish bilan bog‘liq muammolarning asosiy qismi nutqiy malakalar bilan, shuningdek ularni shakllantiruvchi o‘quv topshiriqlari bilan bevosita bog‘liq

Xususan, o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishda ingliz, nemis va fransuz tillari tajribalaridan samarali foydalanish mumkin. Talaba o‘z fikrini go‘zal va lo‘nda ifoda etishi uchun, albatta, keng dunyoqarash, etarli so‘z boyligiga ega bo‘lish bilan birga xalqning milliy ruhi singdirilgan purhikmat maқol va matallarni ham bilishi, ularning (o‘zbekcha-қорақалпоқча-ruscha) variantlarini solishtirib o‘rganish ham dars sifatini oshiradi. Xalq maқollari nafaқat adabiyot darsliklarida, balki ona tili darsliklarida ham ko‘proq keltirilsa, foydadan xoli bo‘lmaydi. Zero, maқollar «yashash қoidalари» sifatida talabaga oddiy misolga qaraganda ko‘proq ma’lumot beradi.

Talaba o‘zida nutqiy kompetensiyani hosil qilib olishi uchun, avvalo, unga sharoit yaratib berilishi kerak, an’anaviy o‘quv topshiriqlari bilan zamonaviy ko‘nikma va malakalar hosil bo‘lmaydi. Buning uchun yuқorida asosi keltirilgan talabani turli nutqiy vaziyatlarga tayyorlovchi, o‘z ixtisosligi bo‘yicha davlat tilida bemałol fikr almasha olishga tayyorlaydigan zamonaviy o‘quv topshiriqlarini isqlab chiqish zarurati mavjud. Bunday matnlar asosida talablarda ham nutqiy ham lingvistik ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Юсупов А. Узбек тили дарсларида нутқий қўнималарни ривожлантирувчи замонавий ўқув топшириқларини ишлаб чиқишнинг илмий-методик асослари. Пед.ф.ф.д-ри. дисс. автореф.– Урганч, 2021. – 26 б.

2. <https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/russkii-yazyk/2018/12/09/metodicheskie-vozmozhnosti-produktivnyh-zadaniy-po#>

3. Г‘уломов А., Неъматов Н. Она тили таълими мазмуни. Она тили ўқитувчилари учун қўлланма. –Т.: Уқитувчи, 1995.

4. Мухиддинова Н. Таълим босқичларида ўзбектили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини токомиллаштириш. Пед.ф.д-ри. дисс. автореф.– Т, ТДПИ, 2011. – 52 б.

5. Пассов Е.И. Основы методики обучения иностранным языкам. –М.: Русский язык, 1977.– С. 152

6. Выготский Л.С. Мышление и реч //Избранные психологические исследования.– М.,1956.–С. 291.
7. Лапидус Б.А. К проблеме функционалной дифференциации языкового материала // Иностранные языки в высшей школе. – М.: 1975.
8. Пассов Е. И. Коммуникативные упражнения. – М.–Л.: Просвещение, 1967. – С. 6–8.
9. Рубинштейн С.Л. О мышлении и путях его исследования. – М.: изд-во АПН СССР. 1958. –с.144.
10. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: “Мысл”, 2-е изд. 1965. –с. 572.
11. Пономарев А. Я. Психология творческого мышления. – М.: изд. АПН СССР. 1960. –с. 352.
12. Разыков О.Р. Основы оптимального применения системы учебных задач в обучении. – Т.: “Учитувчи”, 1981. –с. 103.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луг‘ати. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. -267-б.
14. Зимняя И.Н. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Ж.Высшее образование сегодня, №5. – Москва, 2003. – С.34-42.